

# Publitsistik Matn Tahlilida Soʻzlarning Shakliy Va Maʼnoviy Turlari

*Usmonova Umida Baxtiyorovna*<sup>1</sup>

**Аннотация:** Hozirgi vaqtda tilshunoslar tomonidan gazeta tiliga katta eʼtibor berilishi bejiz emas, chunki ayni unda birinchi navbatda nutqda yuz beradigan har qanday oʻzgarishlar aks etadi. Gazeta publitsistikasi matnlarini maksimal darajada ekspressivlashtirish tendentsiyasi jurnalistlarning gazetxonlar bilan aloqa oʻrnatishga, ularning axborotni anglash imkoniyatlariga moslashishgava oʻzaro munosabatni yaratishga intilishi bilan bogʻliq. Fikrni ifoda etish usullarining yorqinligi va kutilmaganligi, muvaffaqiyatli til oʻyini, uslubning individualligi koʻp hollarda matn mazmunining ravshanligi, taʼsirchanligi bilan ham ham koʻproq baholanadi.

Publitsistik matn tahlilida yozuvchi tomonidan qoʻllangan soʻzlarning shakliy va maʼnoviy munosabatlari muhim oʻrin tutadi. Soʻzlovchining maqsadini toʻgʻri va estetik jihatdan jozibador tarzda ochib berish uchun soʻzlarning doimiy isteʼmoldagisini emas, balki estetik boʻyoqdor shaklini qoʻllashni maʼqul koʻradilar. Tilshunos olim N.Mahmudov sinonimlar haqidagi maqolasida quyidagi fikrni ilgari surgan: “Til birliklari orasidagi sinonimiya munosabati tilday murakkab va muhtasham tizim tarkibidagi favqulodda muhim paradigmatic munosabatlardan biri boʻlib, bu munosabatning mavjudligi mazkur tizimning takomili va taraqqiyoti darajasi bilan uygʻundir. Boshqacha qilib aytganda, tilning rivojlanganlik darajasining yuksakligini, demakki, uning zanginligi va ranginligini taʼmin etadigan muntazam va betimsol omillardan biri unda lisoniy birliklararo maʼnodoshlik – sinonimiya munosabati imkoniyatlarining koʻlamdorligidir. Oʻzbek tili ana shunday qadimiy va rivojlangan boy tillardan biri sifatida salmoqli miqdordagi sinonimik munosabatlar asosida birlashgan yoki birlashadigan soʻz gavharlari zaxirasiga sohib tildir.”<sup>2</sup>

Leksik-semantik sinonimlar – matndan tashqari ham sinonimik munosabat hosil qiluvchi soʻzlar hisoblanib, ular semantik jihatdan bir-biriga mutlaq mos kelishi yoki maʼno nozikligiga koʻra farq qilishi mumkin. Yozuvchi asarda leksik-semantik sinonimlarning oʻziga xos koʻrinishlarini tanlaydi. Masalan: *Bu sogʻinish – sargʻayish, firoq dardidir, shoh... Buning davosi ularni oʻz vatanlariga qaytarishdir. Shundagina tirik qoladilar. Aks holda, qirilib ketgaylar, – dedi Al-Forobiy.*

“Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev mustaqilligimizning 28 yilligiga bagʻishlangan tantanali marosimda bugungi Oʻzbekiston hayoti, orzulari, muammolari, istiqboli haqida soʻz yuritdi. Nutqda inson qalbi, koʻngli, maʼnaviyati, gʻoyasi ongimizda boʻlayotgan va boʻlishi kerak boʻlgan oʻzgarishlarga katta eʼtibor qarattidi” (“Xalq soʻzi”, 2019. №191). Ingliz tilida: “Does it look like they're doing something here?” asked President, looking up and down his street in the Lower Ninth ward, a poor black district in New Orleans eas” (“The New York Times”, 2018. №65).

“Tarjima transformatsiyasi ikki til (asliyat va tarjima)ning tipologik, stilistik, lingvostilistik, lingvopragmatik, lingvomadaniy, sotsiolingvistik hamda lingvotekstologik xususiyatlaridan kelib chiqib tanlanadi. Tarjima transformatsiyalari orasida tarjimada transformatsiyaga asos boʻlib xizmat qiladigan soʻz qoʻshish, soʻzni tushirib qoldirish, umumlashtirish, konkretlashtirish, kalʼkalash, tasviriy tarjima usullari keng qoʻllaniladi. Transformatsiyalar sonining kam boʻlishi tillarning bir-biriga yaqinligidan, transformatsiyalar miqdorining koʻpligi tillarning bir-biridan uzoq ekanligidan dalolat beradi”

<sup>1</sup> Jizzax DPU Maktabgacha va boshlangʻich taʼlimda xorijiy til kafedrasida katta oʻqituvchisi

<sup>2</sup> Bu haqda qarang: N.Mahmudov. “Sinonimlar til zanginligi va ranginligi koʻzgusi”. Oʻzbek tili sinonimlarining katta izohli lugʻati, 1-jild. Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B. 5



- grammatik transformatsiyalar (gaplarni almashtirish, soʻz oʻrnini almashtirish, qoʻshish va tushirib qoldirish usullari kiradi);
- stilistik transformatsiyalar (tasviriy tarjima, sinonimik tarjima, kompensatsiya (qoplash) va shunga oʻxshash usullar kiradi);
- leksik transformatsiyalar (soʻzni almashtirish, soʻz qoʻshish, aniqlik kiritish, gaplarni konkretlashtirish va umumlashtirish hamda soʻzni tushirib qoldirish usullari kiradi).

Sinonimiya hodisasi tilshunoslikda atroflicha oʻrganilgan masalalaridan biridir. Lekin tilshunosligimizning hozirgi kungi taraqqiyoti sinonimiya hodisasini nafaqat leksik, grammatik sathda, balki pragmatik jihatdan ham tadqiq etishni taqozo etadi. Ayniqsa, bu hodisani til va nutq bosqichida oʻzaro aloqadorlikda tadqiq etish uning oʻziga xos yangi-yangi xususiyatlarini ochib beradi. Chunki sistem leksikologiya va hozirgi semasiologiya hamda onomosiologiya tilshunoslikda mufassal tavsiflangan lugʻoviy sinonimiya masalasini yangi nuqtai nazardan tadqiq etish muammosini oʻrtaga qoʻyadi. Shuning uchun bu hodisani til va nutq bosqichida oʻzaro aloqadorlikda hamda qarama-qarshilikda (oppozitsiyada) tahlil etish zarurati yuzaga keladi. Til bosqichida sinonimiya hodisasi muayyan qolip sifatida mavjud boʻlib, atash va ifoda maʼnosi bilan umumiylikni hosil etadi. Masalan: Aft, bashara, yuz, oraz, chehra, jamol kabi sinonimlar atash maʼnosi bilan bir sinonimlik qatorni tashkil etadi. Masalan: “Aft” soʻzi leksik jihatdan “yuz” maʼnosini ifodalaydi. Lekin nutqiy vaziyat, obʼektiv holatga bogʻliq holda baʼzan ust-bosh maʼnosini ham ifodalaydi. Chunki nutqiy vaziyatda bir bola-tinglovchi ust-boshlarini kir qilgan boʻlsa, soʻzlovchi unga nisbatan “Aftingni qara!” degan gapni ishlatadi. Obʼektiv holatdan kelib chiqib, “aft” soʻzi anglatgan maʼnoni har qanday til egasi ust-boshkiyim tarzida tushunadi. Yaʼni, nutqda “aft” soʻzi oʻziga xos maʼno ifodalab, “kiyim-bosh” soʻzi bilan bir uyada birlashadi va sinonimiyani hosil qiladi.

Adabiyotlarda sinonimlar, asosan, toʻrt turga boʻlinadi. [Sodiqov, Abduazizov, Irisqulov 1981, 104]: 1. Maʼno ottenkasiga putur yetkazmay, bir-birining oʻrnida bemalol ishlatila oluvchi soʻzlar absolyut sinonim deyiladi: tilshunoslik – lingvistika. 2. Maʼno jihatdan farqlanuvchi sinonimlar semantik tipga kiradi: botir, jasur, qoʻrqmas, dadil. 3. Nutq situatsiyasi yoki kontekstda maʼnolari jihatdan bir-birining oʻrnida qoʻllana oluvchi sinonimlar kontekstual sinonim sanaladi: shoir, yozuvchi, adib. 4. Maʼno ottenkalarida emotsional-ekspressiv hissiyotni ifodalovchi sinonimlar – stilistik sinonim: yuz, bashara, aft, chehra, nusxa, turq<sup>3</sup>.

Publitsistik matnda birgina maʼnoni ifodalash uchun bir necha til birliklaridan foydalaniladi. Masalan: Uchrashuvning birinchi boʻlimida darvozalar ishgʻol etilmadi. Ikkinchi boʻlimda ham terma jamoalar bir qancha xavfli vaziyatlarni yaratsa-da, darvozalar daxlsizligi saqlanib qoldi. Shu tariqa uchrashuv 0:0 hisobi bilan yakunlandi. (<https://daryo.uz>) Mazkur matn yaratuvchisi (muxbir) soʻzni takror qoʻllanishini oldini olish maqsadida mazmunan maʼnodosh boʻlgan birliklardan foydalangan. Bunda *ishgʻol etilmadi, darvozalar daxlsizligi saqlanib qoldi, 0:0 hisobi, durang qayd etdi kabi birliklar matnda* JCH—2026 saralashida Oʻzbekiston Eron uchrashuvida hisob ochilmaganini ifodalaydi va bizningcha, bu birliklar nutqiy sinonim hisoblanadi. Manbalarda sinonimik soʻzlar oʻrtasidagi semantik aloqaga koʻp eʼtibor qaratiladi. Xususan, mazkur hodisa maʼnodoshlik asosida bogʻlangan lugʻaviy birliklarning aniq tizimidir. Xuddi mana shu aniq semantik aloqa asosida bogʻlangan leksik paradigmalar, oʻz navbatida, yaxlit bir mikrotizimni tashkil qiladi<sup>4</sup>. Publitsistik matnda qoʻllangan bunday nutqiy sinonimlarning asosiy vazifasi takrorga yoʻl qoʻymaslik, maʼnoni kuchaytirish va boʻyoqdorlikni oshirishdan iborat. Mazkur sinonimlar bir umumiy maʼnoni ifodalasa ham, shu umumiy maʼnoni ifodalash darajasi nuqtai nazaridan bir-biridan farq qiladi. Nutqiy sinonimik qator aʼzolari jamiyat tomonidan zamonaviy soʻz sifatida qoʻllanadigan, qoʻllanish doirasi chegaralangan leksika (argo, jargo, varvarizm, vulgarizm, dialektal soʻzlar)dan tashkil topadi. Nutqiy sinonimik qatorlar nutqiy sinonimiya asosida yuzaga keladi va shaxsning ijtimoiy va geografik oʻrni asosida

<sup>3</sup> Saidova F. Sinonimlar izohli lugʻatlarida sinonimik qatorlarni tuzish asoslari. // Zamonaviy oʻzbek tili jurnali, 2023. – № 2. – B. 137.

<sup>4</sup> Bu haqda qarang: Сафарова Р. Лексик-семантик муносабат турлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – Б. 2.



belgilanadi, shu orqali boyib yoki kamayib boradi. Masalan: abadiy – mangu – umrbod – toabad – boqiy – ilalabad.

...Ushbu ma'lumotning ma'lum darajada "rasmiy" nashr sanaluvchi barcha entsiklopediyalardan o'rin olgani uning maqomini, ya'ni "rasmiy ma'lumot" ekanini, tegishli idoralar ma'qullagan, ehtimol, taqdim etgan ma'lumot deb tushunishga izn beradi. Shoirning vafot sanasi mazkur nashrlarning deyarli barchasida 1939 yil deb ko'rsatilganki, bu ham ma'lumotning "rasmiy"ligi haqidagi fikrlarimizni quvvatlaydi. Keltirilgan misolda izn beradi va qo'vvatlaydi fellari matnda manodoshlikni yuzaga keltirmoqda.

Ingliz va o'zbek tillarida mutlaq sinonimlar qariyb yo'q<sup>5</sup>

Nutqiy sinonimlari: o'la-o'lguncha, qiyomatgacha, qiyomatli, oxir zamongacha, dunyo turguncha, yer turguncha, tiriklik tugaguncha, hayot tugaguncha, dunyo sob bo'lguncha, dunyo tugaguncha, dunyo ado bo'lguncha, hayot tugaguncha; doimiy, doimo, har doim, uzluksiz, to'xtamasdan, har vaqt, hammavaqt, har zamon, to falak bor ekan, to bashar, tongla mahshargacha, sur chalinguncha, quyosh chiqmay qolguncha, qiyomat qoyim bo'lguncha...

Bunday (publitsistik) matnda morfologik ma'nodoshlik (Qo'shimchalar o'rtasidagi ma'nodoshlik– affiksial sinonimiya. Masalan: -siz va -be tinimsiz–betinim kabi<sup>6</sup>) bitta gap tarkibida qo'llanib stilistik vazifa bajaradi va ta'sirchanlikni oshirishga xizmat qiladi. Masalan: Vaqtning behuda sarflamaslik, zehnni foydasiz ma'lumotlar bilan to'ldirmaslik lozim.(Tohir Malik)

Bazan publitsistik matnning ta'sirchanligi va ifodaliligini ko'rsatishda zid ma'noli so'zlar muhim stilistik vazifa bajaradi. Til baxtning ham kulfatning ham kaliti bo'lishi mumkin.(Tohir Malik) Leksik sathdagi zid ma'nolilik ko'proq sifat, ravish va fe'l so'z turkumlari doirasida yuzaga keladi. E'tiborlisi keltirilgan misolda leksik antonim ot so'z turkumiga oid. Ot – sifat antisemiyasida yasovchi asos qaysi turkumda bo'lishidan qat'i nazar, antisemik munosabat yadrosini "belgi" tashkil etadi. Chunki ot turkumidagi antisemiya, asosan, mavhum otlarga xos, bunday so'zlar, odatda, belgi yoki harakatdan mavhum otlar sifatida xarakterlanadi. Masalan: yovuz – ma'lum predmetning shunday belgisi, yovuzlik – belgining ob'ektdan xoli shakli. Mazkur otlar tub so'z shaklida ham (g'am, qayg'u, kulfat kabi), yasama so'z shaklida ham (ezgulik, yovuzlik, poklik, shodlik kabi) kuzatiladi. Yasama so'z shaklida kelganda ular semantikasidagi belgi tub holatidagidan yorqinroq aks etadi, chunki bunday holatda semantik akslanish ham sodir bo'ladi: ezgu—ezgulik, yovuz—yovuzlik kabi.<sup>7</sup>

"Bu tipdagi antonimlarning ko'pchiligi o'zak e'tibori bilan belgi bildiruvchi so'z – sifatlarga borib taqaladi. Boshqacha qilib aytganda, sifat va ravishlardan ot yasalishi ot so'z turkumlari doirasida ko'plab yangi antonimlar paydo bo'lishiga sabab bo'ladi".<sup>8</sup>

Bu kabi antonimlarni publitsistik matndan yuzlar keltirish mumkin: Nafaqat o'tmish, balki bugungi zamondoshlarning badiiy merosi ham juda qimmatli. Bizda katta-kichik rahbarlar yuqoriga ko'z tikib yashashga o'rganib qolgan edi. (Tohir Malik, O'zbekiston adabiyoti va sanati gazetasi. 1989-yil, 10-mart.)

"O'zimiz o'z ichimizda bir-birimizga har qancha yaxshi-yomon gap aytsak ko'taramiz. Lekin xorijda o'zbeklar haqida faqat yaxshi so'zlar aytilishini istar edim." (Erkin Vohiov, 1992-yil 17-yanvar. "O'zbekiston adabiyoti va sanati" gazetasi).

Publitsistik matnda bazan nitqiy voqelikka zid birlaklar qo'llaniladi. Bunda holatlar ko'proq OAV eferlarida kuzatiladi. Masalan: "Endi e'tiboringizni mana bu xatlarga qaratsak" (Yoshlar radiosi 4.04.20); "Navbatni kuy va qo'shiqqa bersak endi ko'shiq va raqslar tinglab dam olishingizni tilagan holda siz bilan..." (Mash'al radiosi 24.05.2008) Keltirilgan jummalarda e'tiboringizni xatlarga qaratish,

<sup>5</sup> Тухтаходжаева Н. Бадий таржимада лингвокультуремаларнинг ифодаланиши (инглиз ва ўзбек тиллари мисолида) филол.фан.фалсафа.доктори дисс... - Тошкент., 2017. – Б. 74.

<sup>6</sup> Qarang: Хожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – Б. 20

<sup>7</sup> Абдуллаева Д. Ўзбек тилида антисемия: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2010. – Б. 29.

<sup>8</sup> Шукуров Р. Ўзбек тили антонимларининг лексик-семантик табиати: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 1973. – Б. 29.



ko'shiq va raqslar tinglamoq (garchi qo'shiqni tinglamoq mumkin bo'lsa ham raqsni tenglab ham, radio orqali ko'rib ham bo'lmaydi) kabi mantiqiy jihatdan voqelikka zid tushunchani ifodalovchi birliklar ishlatilgan.

Tohir Malik publitsistik maqolalarida lisoniy butunliklar sirasida qo'shimchalar o'rtasidagi o'zaro qarama-qarshi ma'nolilik (Affikisal antonim. Affikslararo antonim: -li va -siz (kuchli-kuchsiz)kabi.<sup>9</sup>) xususiyatidan ko'p o'rinlarda foydalangan.

Albatta, bu jumladagi antonim qo'shimchalar o'z o'rnida qo'llanib, jumlaning ta'sir kuchini oshirgan. Ushbu zid ma'noli qo'shimchalar bog'lanib kelgan so'zlarni qo'llash natijasida yozuvchi bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikki tushunchani zidlash orqali tasvirning aniq, ravshan chiqishiga va ifoda ekspressivligiga erishgan. Lekin bir holatni nazardan qochirmaslik kerakki, *siz* va *li* qo'shimchalari asosida yasalgan so'zlar ba'zan kontekstdan tashqarida antonimlik hosil qilmay qolishi ham mumkin.

Publitsistik matnda morfologik, leksik qarama-qarshilikdan tashqari frazeologik qarama-qarshilik ham ko'p qo'llaniladi. Masalan: Inson donoligi bilan o'z tili va so'zlaridan oqilona foydalansa, insonlarning qalbidan joy oladi. Agar til nazoratsiz qolsa, aksincha ko'ngillarni qoldirish hech gap emas. (Tohir Malik)

Keltirilgan qarashlar va muloxazalarning hammasi tilning nechog'lik murkkab "tizim" ekanligidan dalolat beradi. Til boyligi faqat so'zlar, iboralar miqdori bilan emas, so'zlarning leksik ma'nolari miqdori bilan ham o'lchanadi.

---

<sup>9</sup> Qarang: Хожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – Б. 20

